



<https://interscience.uz/>

ISSN 2181-1709 (P)

ISSN 2181-1717 (E)

SJIF: 3.805 (2021)

**2023/8**

**TA'LIM VA  
INNOVATION  
TADQIQOTLAR**

**ОБРАЗОВАНИЕ И  
ИННОВАЦИОННЫЕ  
ИССЛЕДОВАНИЯ**

**EDUCATION AND  
INNOVATIVE  
RESEARCH**

**TA'LIM VA INNOVATSION TADQIQOTLAR**  
**ОБРАЗОВАНИЕ И ИННОВАЦИОННЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ**  
**EDUCATION AND INNOVATIVE RESEARCH**



**Muassis:**

Buxoro davlat universiteti  
Fan va ta'lim MChJ

**Bosh muharrir:** Ma'murov Bahodir  
Baxshullayevich

**Jamoatchilik kengashi raisi:**  
Xamidov Obidjon Xafizovich,  
Buxoro davlat universiteti rektori

**Tahririyat kengashi raisi:**  
Maxmudov Mels Hasanovich

**Mas'ul kotib:** Akramova Gulbahor  
Renatovna

**Texnik muxarrir:** Davronov Ismoil  
Ergashevich

**Tahririyat manzili:**

Buxoro shahar,  
Q.Murtazoyev ko'chasi, 16-uy

Telefon:  
+998(90)744-00-22

E-mail:  
eirjurnal2020@gmail.com

Jurnalning elektron sayti:  
www.interscience.uz

Jurnal OAK Rayosatining 2021 yil 30 sentyabrdagi 306/6-son Qarori bilan PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA, FILOLOGIYA, TARIX FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ruyxatiga kiritilgan

Bosishga ruxsat etildi: 28.08.2023 y.  
Qog'oz bichimi 60x84 1/8. b/t.12,5.  
Buyurtma raqami 1.23  
«FAN VA TA'LIM» nashriyotida chop etildi. Buxoro shahar

Jurnal 28.07.2021 yilda 9305 raqami bilan O'zbekiston Ommaviy axborot vositalari davlat ro'yxatidan o'tgan

Jurnal 2020 yilda tashkil topdi va 2 oyda 1 marta chop etildi.  
2021 yil noyabr oyidan boshlab har oyda 1 marta o'zbek, rus va ingliz tillarida chop etiladi

«Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar» xalqaro ilmiy-metodik jurnalidan ko'chirib bosish tahririyatning roziligi bilan amalga oshiriladi

Maqolada keltirilgan faktlarning to'g'riligi uchun muallif mas'uldir

<b>07.00.00 – TARIX FANLARI</b>	
Asatullaev M. I. История подготовки кадровых работников культуры Узбекистана (на примере Самаркандской области).	7
Axmedov Z. R. O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlash hamda Uchinchi Renasans bunyodkorlarini tarbiyalashda nuroniylarni tutgan o'rni.	11
Toirov A. O. Jaloliddin Manguberdi hayotining arab va fors tilidagi manbalarda yoritilishi to'g'risida mulohazalar	15
To'raho'jayev S. Turkiston ASSRdan qochoqlarni reevakuatsiya qilinishi	20
Xasanova Z. Дж. Массовое восстание 1916 года в Туркестане примере Фергенской области. (по материалам национального архива Республики Узбекистан).	24
Yo'ldashev S. A. Amir Temur va Temuriylarning tashqi savdo va elchilik aloqalari	29
<b>10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI</b>	
Karamova Sh. L. An'anaviy she'riyatda metaforik obrazlilikning kuchayishi.	33
Kasimova R. R. O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" qissasi inglizcha tarjimasida milliylik ifodasi	37
Raximova M. A. Esse matnlarida qo'llanilgan pretsedent birliklar	41
Saidova K. Omonimlik va polisemantik hodisalarni farqlash	45
Shodieva Sh. I. Vatan konseptining leksik-semantik maydonlari	48
Toirova G.I., Chudakova V. P., Kuziyeva T.F. Characteristics of Writing abbreviations adapted to the uzbek language in the process of using integral digital tools	51
Turopova P. Sh. "Muqanna" dramasi pedagogik texnologiyalar asosida o'rganish	57
Yorbulova D. Sh. Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon "Galdir" tahlili	60
Ziyodullayev A. R. Ingliz va o'zbek tillarida eponimlarning lingvokulturologik aspektlari	64
<b>13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI</b>	
Ahmedjanov N.A. O'zbekiston turizmi rivojida jizzax viloyatining o'rni va roli	69
Алибеков Ш. А. Теоретические принципы развития жизненно-практических компетенций у обучающихся старшеклассников на основе интегративного подхода.	73
Aliyev N. M. Gipotetik-deduktiv metod orqali bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirishning innovasion-pedagogik tizimi	77
Allamberganova M.X. Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilariga elementar matematik tushunchalarni o'rgatishda dasturiy vositalardan foydalanish	81
Askarova Sh. M. Yevropada shaxs mediamadaniyatiga oid tadqiqotlar	85
Asqarova M. Boshlang'ich ta'limda xalqaro baholash dasturlaridan foydalanishning metodik asoslari	88
Avazov A. J. Uzlüksiz ta'lim-tarbiya jarayonini boshqarishda ijtimoiy-madaniy ta'sirlar	92
Axnazarova D. E. Talabalarda ijodkorlik qobiliyat xususiyatlarini namoyon bo'lishining o'ziga xos psixologik jihatlari	95

Azizov A. B. Yosh yunon-rom kurashchilarning mashg'ulot jarayonida funksional imkoniyatlarini rivojlantirish va musobaqa samaradorligini oshirish	99
Begmatov R. R. Huquqbuzarliklar profilaktikasining ijtimoiy-pedagogik xususiyatlari: tahlil va tavsif	104
Bo'taev T. Texnika oliygoxlari talabalarini tadbirkorlikka o'qitish va yo'naltirish asoslari	108
Bozorova D. R. Adabiyot darslarida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishda ta'lim metodlarining o'rni	112
Danieva Ya. Ch. Talaba qizlarda jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirishda xarakterli o'yinlarning ahamiyati	116
Ergashev J. B. Компьютерное обучение в системе общеобразовательной школе	119
Fayziyeva G. X. Fizika o'qituvchisining ijtimoiy-kompetensiyasini rivojlantirish ijtimoiy ta'lim jarayoni sifatida	122
Fayzullayeva M. A. Ta'lim klasteri sharoitida ta'lim jarayonini raqamli texnologiyalar asosida tashkil qilish va rivojlantirish	126
Gayupova S. X. Zamonaviy talaba shaxsini shakllantirishda individual ta'limning pedagogik imkoniyatlari	132
Gulboyev B. Zamonaviy sivilizatsiyada axborotning strategik resursga aylanishi	134
Hakimova T. N. Bo'lajak o'qituvchilarda milliy dunyoqarashni xalq pedagogikasi asosida takomillashtirish metodikasi	137
Jumaniyozova M. T. Integrativ kreativlikni rivojlantirish metodikalari	140
Kadirov R.T. Darsdan tashqari mashg'ulotlarda talaba-aktyorlarning sahna nutqiga oid bilim va ko'nikmalarni takomillashtirish usullari	146
Kurbaniyozova Z. K. Pedagogik fanlarni o'qitishda pedagogik vaziyatlardan foydalanish	151
Kurbonov I. H. Jahon ta'lim va ilmiy muassasalarda innovatsion faoliyatga shaxsning tayyorgarligini shakllantirish xususiyatlari	155
Mirsharipova S. R. Innovatsion yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetentligini rivojlantirish	159
Muxtarov E. K., Musaev E. A., Ikromov A. Sh. Avtoto'lqinlarni o'rganishda kompyuter modellaridan foydalanish	161
Narzikulova D. X. Kompetensiyaviy yondashuv asosida oilada ijtimoiy munosabatlarni barqarorligini ta'minlash	166
Nurulloev L. L. 2-4 sinf o'quvchilari bilan o'tkaziladigan jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining xususiyatlari, shakllari va usullari	170
Obidova G. K. Kompleks yondashuv orqali ingliz tilini o'rganishda ekologik madaniyatni rivojlanishini ta'minlovchi omillar	175
Oqilova K. S. O'qituvchining individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasini tuzish va takomillashtirishga motivatsion tayyorlik	178
Olloqova O'. M. Kommunikativ kompetensiya - o'quvchining muloqot madaniyatini rivojlantirish omili	182
Qarshibayeva D. X. Maktabgacha ta'lim tashkilotida metodik ishlarni tashkil etishda menejerlik sifatlarining ahamiyati	187
Qodirov G'. O'. Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishda qo'llaniladigan evristik topshiriqlarning pedagogik xarakteristikasi	190
Qurbonova N. P. Bo'lajak iqtisodchilarning ingliz tili darslarida kasbiy kompetensiyalarini transformatsiya qilish	193
Ramazonova S. S., Qoryog'diev Z. O. Xalq pedagogikasi tushunchasining tahlili va uning manbaalari	197
Ravshanjonova S. J. O'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishda adabiyotning o'rni	202
Razaqov F. K. Umumta'lim maktablarida, o'qitish sifatini oshirishda, o'quvchilarda ijtimoiy-psixologik xizmatni ahamiyati	205
Ro'ziyeva Z. S. Ta'lim jarayonini san'at darajasiga kutarish mevasi zavqdir	208
Safarova N. N. Zamonaviy ta'limda matematika o'qituvchisining kompetensiyasini rivojlantirishda kasbiy mahoratning ahamiyati.	212
Salimov G'. M. MTMLar jismoniy tarbiyasida harakat faolligining samaradorligini oshirish yo'llari.	223
Sayfullaeva D. I. Tibbiy oliy ta'lim muassasalari talabalarini kasb-hunar faoliyatiga tayyorlashda axborot texnologiyalaridan foydalanish metodik tizimini takomillashtirishning o'ziga xosligi	230
Tashmatova Sh. R. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativligi, uning ijodiy faoliyatida paydo bo'lishi va rivojlanishi bosqichlari	233
Тешаев III.Ж. Качество образования и векторы развития - наша основная цель	238
To'xtaeva Z. Sh., Ubaydova V. E. Yengil sanoat korxonalarida eksportbop mahsulotlar tayyorlashda naqshbandiya ta'limotini qo'llash imkoniyatlari va shart-sharoitlari	241
Toshev M. X. Maktab o'quvchilariga shaxmatni kompyuter texnologiyalari vositasida o'rgatishning didakik tamoyilari	246

## KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYA - O'QUVCHINING MULOQOT MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH OMILI

*Olloqova O'g'iljon Mamanazarovna*  
*Buxoro davlat universiteti boshlang'ich ta'lim kafedrasini o'qituvchisi*

*Annotatsiya: mazkur maqolada kommunikativ kompetensiyaning nazariy asoslari tahlil qilinib, chet el olimlarning pedagogik qarashlari bayon qilingan. Kommunikativ, lingvistik va pragmatik kompetensiyaning o'zaro bog'liqligi ilmiy jihatdan asoslangan. Bundan tashqari, o'quvchilarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga xizmat qiluvchi kommunikativ mashqlar va ularning ahamiyati ochib berilgan.*

*Kalit so'zlar: til ta'limi, kompetensiya, kompetentlik, kommunikativ kompetensiya, pragmatik kompetensiya, lingvistik kompetensiya, o'qish, gapirish, yozish, tinglash, kommunikativ mashqlar.*

## КОММУНИКАТИВНАЯ КОМПЕТЕНЦИЯ - ФАКТОР РАЗВИТИЯ КУЛЬТУРЫ ОБЩЕНИЯ СТУДЕНТОВ

*Оллоқова Ўғилжон Маманазаровна*  
*Бухарский государственный университет преподаватель кафедры начального образования*

*Аннотация: в данной статье анализируются теоретические основы коммуникативной компетенции и описываются педагогические взгляды зарубежных ученых. Научно обоснована взаимозависимость коммуникативной, языковой и прагматической компетентности. Кроме того, раскрываются коммуникативные упражнения, служащие для формирования коммуникативной компетенции у учащихся, и их значение.*

*Ключевые слова: языковое образование, компетенция, компетентность, коммуникативная компетенция, прагматическая компетенция, языковая компетенция, чтение, говорение, письмо, аудирование, коммуникативные упражнения.*

## COMMUNICATIVE COMPETENCE - A FACTOR OF THE DEVELOPMENT OF THE CULTURE OF COMMUNICATION OF STUDENTS

*Olloqova O'g'iljon Mamanazarovna*  
*Bukhara State University teacher at the Department of Primary Education*

*Abstract: this article analyzes the theoretical foundations of communicative competence and describes the pedagogical views of foreign scientists. The interdependence of communicative, linguistic and pragmatic competence has been scientifically substantiated. In addition, communicative exercises are revealed that serve to form the communicative competence of students, and their significance.*

*Key words: language education, competence, competence, communicative competence, pragmatic competence, language competence, reading, speaking, writing, listening, communicative exercises.*

**Kirish.** Bugungi kunda dunyoning yetakchi mamlakatlar ta'lim tizimiga oid tajribasini o'rganish, tahlil qilish, milliy ta'lim tizimimizga mos bo'lgan jihatlarni amaliyotga tatbiq qilish bizdagi ta'lim tizimini jahon standartlari darajasiga olib chiqish uchun juda muhimdir. Ta'lim sohasidagi islohotlarni amalga oshirishda dunyoda va jamiyatda bo'layotgan barcha o'zgarishlarni hisobga olish, ana shu asosda qilinadigan ishlar mazmunini aniqlash juda muhim.

Ijtimoiy va iqtisodiy hayot, fan va texnikaning ilgarilab ketishi natijasida deyarli barcha mamlakatda bolalar turli xil gadjetlar va internet ta'sirida ulg'aymoqdalar. Bu bir tomondan ularning aqliy rivojlanishi, tafakkurining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ikkinchi tomondan esa ularni atrofdagilar, tengdoshlari bilan muloqot jarayoniga ko'rinmas to'siq qo'yadi. Negaki, hozirda muloqotning yangi ko'rinishi "onlayn muloqot" vujudga kelgan. "Onlayn muloqot"da esa turli xil tasvir va simvollar keng foydalanishi natijasida jonli muloqotda muhim ahamiyatga ega bo'lgan hissiyot, mimika, pantomimika, ta'sirchanlik kabilar yuzaga chiqmaydi. Natijada esa bolalarda muloqotchanlik ko'nikmasi juda sekin rivojlanishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun ham bolalarni erkin va kreativ fikrlaydigan, atrofdagilar bilan qiynalmay muloqot qila oladigan, o'z ona tilini sevadigan, o'zligini anglaydigan, ma'naviy yetuk, o'tkir zehn egalari qilib tarbiyalash juda muhim. Ko'zlangan maqsadga erishish uchun milliy o'zligimiz timsoli, ma'naviyatimiz asosi bo'lgan ona tilimizga bo'lgan e'tiborni yanada kuchaytirish, uni rivojlantirish, boyitish uchun aniq vazifalarni belgilab olish lozim.

Yuqoridagi fikrlardan anglashimiz mumkinki, til ta'limiga bo'lgan e'tibor yildan-yilga ortib bormoqda. Bundan tashqari, boshlang'ich sinf o'quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirish, ularda muloqotchanlikni tarkib toptirish, har qanday muammoli vaziyatlardan chiqib keta olish ko'nikmasini shakllantirish kabi vazifalar belgilab qo'yilgan. Bu vazifani bajarishda ona tili fani muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Ona tili" fanini o'qitishning asosiy vazifasi: ona tili ta'limi oldiga qo'yilgan ijtimoiy buyurtma o'quvchi shaxsini fikrlashga, o'zgarar fikrini anglashga va shu fikr mahsulini og'zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga, ya'ni kommunikativ savodxonlikni rivojlantirishga o'rgatishdan iborat [1].

Boshlang'ich sinflarda o'quv predmeti sifatida ona tili va o'qish savodxonligi fanining kiritilishi esa o'quvchilarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda yanada keng imkoniyat yaratdi.

Biz quyida "kommunikativ kompetensiya" tushunchasining paydo bo'lish tarixi, mazmuni va pedagog olimlarning fikrlariga to'xtalamiz.

"Kommunikativ kompetensiya" atamasi ilmiy adabiyotga D.Xayms tomonidan kiritilgan. O'tgan asrning 60-70-yillaridan boshlab tilni o'rganishga doir dastlabki kompetensiyalar kiritila boshlandi. Bunda D.Xayms tomonidan 1972-yilda "kommunikativ kompetensiya" tushunchasi kiritiladi. Kompetensiya/kompetentlik kategoriyalarini tilni, ayniqsa, ikkinchi (ona tilidan tashqari) tilni o'rganish nazariyasi va amaliyotida, boshqarishda, rahbarlikda, menejmentda professionallik va muloqotni o'rganishda foydalanila boshlandi.

Kommunikativ kompetensiya – ijtimoiy vaziyatlarda ona tilida hamda birorta xorijiy tilda o'zaro muloqotga kirisha olishni, muloqotda muomala madaniyatiga amal qilishni, ijtimoiy moslashuvchanlikni, hamkorlikda jamoada samarali ishlay olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi [4].


Bugungi kunga qadar "kommunikativ kompetensiya" tushunchasiga bir qanqa chet el va mahalliy pedagoglar tomonidan turlicha ta'riflar berilgan. Pus pedagogigi S.A.Gilmanova o'zining ilmiy faoliyatida nolingvistik fakulteti talabalarining chet tilidan kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik shartlarini tahlil qilgan va ko'plab ta'riflarni keltirgan [5].

Pedagogika fanlari nomzodi E.I.Litnevskaya "kommunikativ kompetensiya" atamasiga "nutq faoliyatining barcha turlarini hamda og'zaki va yozma nutq madaniyati elementlarini, ma'lum bir yosh uchun hayotiy ahamiyatga ega bo'lgan muloqot sohalari va vaziyatlarida tildan foydalanishning asosiy ko'nikmalari va malakalarini egallash» deb ta'rif beradi [5].

M.R.Lvovning ta'kidlashicha, "Kommunikativ kompetensiya – til (ona tili va ona tili bo'lmagan), uning fonetik xususiyatlari, leksik va grammatik birliklari, stilistikasi, nutq madaniyati, ushbu til vositalariga ega bo'lish va nutq faoliyati turlarini – nutqni bilishni bildiruvchi tushunchadir. U kommunikativ kompetensiyaga tabiiy nutq faoliyati natijasida va maxsus tayyorgarlik natijasida erishiladi – deb ta'kidlaydi [5].

Bir qanqa pedagog va lingvistlar kommunikativ kompetensiyani bir qanqa tarkibiy qismlarga ajratishgan.

I.L.Beam kommunikativ kompetensiyani quyidagilarga ajratadi: 1) lingvistik; 2) nutqiy; 3) ijtimoiy-madaniy; 4) kompensatsiya kompetensiyasi. I.L.Bim ushbu kompetensiyalarning barchasi o'qish, gapirish, yozish va tinglash qobiliyatlari bilan bog'liqligini ta'kidlaydi. [5]



1-chizma. I.L.Bimmning fikriga ko'ra kommunikativ kompetensiya haqidagi qarashlari

Pedagogika fanlari nomzodi T.A.Pirkova kommunikativ kompetensiya bir qancha kompetensiyalar yig'indisidan iboratligini aytadi. U "Kommunikativ kompetensiyaning tarkibi xilma-xil bo'lib, murakkab yaxlitlikni tashkil etadi. Unda bir nechta kompetensiyalar, shu jumladan, lingvistik kompetensiya ajralib turadi" – deydi [6].

M.Z. Biboletova chet tillarini o'rganish nuqtayi nazaridan kommunikativ kompetensiyaning quyidagi tarkibiy qismlarini taklif qiladi:

- nutqiy kompetensiya - nutq faoliyatining to'rtta asosiy turi (gapirish, tinglash, o'qish, yozish) bo'yicha muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish;

- til kompetensiyasi – o'quv dasturiga muvofiq yangi til vositalarini (fonetik, imlo, leksik, grammatik) o'zlashtirish; o'rganilayotgan tilning lingvistik hodisalari, fikrni ona va chet tillarida ifodalashning turli usullari haqidagi bilimlarni o'zlashtirish;

- ijtimoiy-madaniy / madaniyatlararo kompetensiya - boshlang'ich sinf o'quvchilarining tajribasi, qiziqishlari, psixologik xususiyatlariga mos keladigan mavzular, o'rganilayotgan tilda muloqot qiluvchi mamlakatlarning madaniyati, an'analari, voqe'liklari bilan tanishish; madaniyatlararo muloqot nuqtayi nazaridan o'z mamlakatini, uning madaniyatini ifodalash qobiliyatini shakllantirish;

- kompensatorlik kompetensiyasi - axborotni qabul qilish va uzatishda til vositalarining yetishmasligi sharoitida vaziyatdan chiqish ko'nikmalarini rivojlantirish (o'quvchini murakkab holatda vaziyatdan oson chiqish kompetensiyasidir) (o'quvchida bo'lishi kerak: o'z-o'zini boshqarish qobiliyati, tashkilotchilik, kamtarlik, talabchanlik, jamoa bilan birgalikda ishlash, faollik, kreativlik bo'lishi kerak). Kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy qismlarini quyidagi rasmda umumlashtirishimiz mumkin) [3].

Azimov va Shukinalar tomonidan tartib berilgan pedagogik ensklopediyada kommunikativ kompetensiyaga bir necha xil ta'riflar keltirilgan. Unga ko'ra:

- o'quvchilar uchun kundalik, ta'lim, ishlab chiqarish va madaniy hayotda dolzarb bo'lgan muloqot vazifalarini chet tili yordamida hal qilish qobiliyati;

- o'quvchining muloqot maqsadlariga erishish uchun til va nutq faktlaridan foydalanish qobiliyati;

- nutq aloqasining turli sharoitlarida lingvistik kompetensiyani amalga oshirish qobiliyati.

Psixologik nuqtayi nazardan kommunikativ kompetensiya, eng avvalo, shaxsning nutq faoliyatini uning samarali shakllarida muloqot holatiga adekvat (tenglashgan, mos, aynan bir, o'xshash) tashkil eta olish qobiliyatidir [2, 98].

Ko'pgina adabiyotlarni tahlil qilganimizda shunga amin bo'ldikki, ko'pgina xorijiy tadqiqotchilarning fikriga ko'ra kommunikativ kompetensiyani shakllantirish vazifasi chet tillarini o'rganish jarayonida amalga oshiriladi deb qaraladi. Shunday pedagoglardan biri I.A.Zimnyayadir. U kommunikativ kompetensiyani "shaxsning muloqotda kommunikativ faoliyati subyektini o'ynash qobiliyati" deb belgilaydi.

Bizning fikrimizcha esa, kommunikativ kompetensiya – bu o'quvchilarning o'z-galar nutqini tushunishi, o'zining og'zaki va yozma, ichki va tashqi nutqiga ega bo'lishi, nutq vaziyatiga mos bo'lgan fikrlarni aytish olishi, turli xil nutqiy vaziyatlardan chiqib keta olish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmaga ega bo'lishi.


Kommunikativ kompetensiya nafaqat chet tillarini, balki ona tilini o'rganish jarayonidagi eng muhim vazifalardan biridir. Fikrimiz dalili sifatida shuni aytishimiz mumkinki, "Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va oliy ta'lim tizimlarida ona tili fanining uzviylikini ta'minlash konsepsiyasi"da ona tili fani orqali o'quvchi shaxsida fikrlashga, o'z-galar fikrini anglashga, o'z fikrini og'zaki hamda yozma shaklda nutq sharoitiga mos ravishda to'g'ri va ravon bayon qila olishga qaratilgan nutqiy (kommunikativ) kompetensiya rivojlantirilishi ta'kidlangan.

Bundan tashqari, boshlang'ich sinf o'quvchilarini fikrlashga, o'z-galar fikrini tushunishga, anglaganlarini tizimli ravishda og'zaki hamda yozma shaklda qayta bayon qila olishga, boshqalarga aniqlik qilib yetkazib bera olishga o'rgatish, ya'ni ularda kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish, mantiqiy, tanqidiy, kreativ va tizimli fikrlash, mustaqil qaror qabul qila olish, o'quvchilarning o'z intellektual qobiliyatlarini namoyon eta olishlari va ma'naviy jihatdan yetuk shaxs sifatida o'sib ulg'ayishlari uchun zarur shart-sharoit yaratish ona tili fanini yanada rivojlantirish maqsadlaridan biri hisoblanadi.

Muhokamalar. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ kompetensiyani shakllantirish ona tili va boshqa fanlardan nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalarni egallashlariga yordam beradi. Chunki o'quvchilar muloqot qilish natijasida dunyoni yanada kengroq anglab boradilar. Bu esa ularning ta'limning keying bosqichlarida ham bilimlarni puxta egallashga yordam beradi. Shuning uchun ham boshlang'ich sinf o'qituvchisi kommunikativ kompetensiyaning mazmun-mohiyatini chuqur anglashi, o'quvchilarda muloqotchanlik ko'nikmalarni shakllantirishning usullarini bilishi

lozim.

O'quvchilarda kommunikativlik kompetensiyasini shakllantirishning yana bir muhim xususiyati shundaki, Milliy o'quv dasturiga ko'ra ona tilidan o'quvchilarda fanga oid lingvistik kompetensiyalarni tarkib toptirish lozimligi belgilangan. Lingvistik kompetensiya esa kommunikativ kompetensiyaning asosiy tarkibiy qismidir. Shunday ekan, o'quvchilarning lingvistik malakalarini rivojlantirish kommunikativ kompetensiyaning shakllanishi bilan birgalikda amalga oshiriladi. Lingvistik kompetenlikka ega bo'lgan o'quvchi pragmatik kompetensiyaga, ya'ni turli xil nutq vaziyatlaridan chiqib keta olish qobiliyatiga ega bo'ladi. Bundan ko'rinib turibdiki, har uchala kompetensiya bir biri bilan bog'liq. Ularning o'zaro bog'liqligini quyidagi chizmada ko'rish mumkin:



2-chizma. Kommunikativ, lingvistik va pragmatik kompetensiyaning o'zaro bog'liqligi

Kommunikativ kompetensiyaning zarur darajasi o'qitish bosqichi va maqsadi bilan belgilanadi. O'quvchilarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda ta'limning har bir bosqichida alohida e'tibor beriladi. O'quvchilarning yoshi ulg'aygan sari ularning kompetentligiga qo'yilgan talab ham ortib boraveradi. Bundan tashqari dars jarayonidagi tillararo integratsiya kommunikativ kompetensiyani, ya'ni ijtimoiy vaziyatlarda ona tilida hamda xorijiy tilda muloqotga kirisha olish layoqatini yanada rivojlantiradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda bir qancha muammolar mavjud bo'lib, ularni hal qilmay turib natijaga erishish qiyin. Ular quyidagilar:

- o'quvchilardagi qo'rquv hissi. Qo'rquv hissi o'quvchilarning o'z imkoniyatlarini ko'rsatishga halaqit beradi. Ichki qo'rquvga ega bo'lgan o'quvchilarni doimo "xato qilib qo'ysamchi?", "mening fikrim xato bo'lsachi?" kabi savollar qiynaydi.

- o'quvchining tortinchoqligi. Odatda, tortinchoq o'quvchilar muloqot jarayonida juda passiv bo'ladilar. Ularda tortinchoqlik bolalikda paydo bo'ladi. Agar bunday o'quvchilarda muloqotchanlik ko'nikmasi to'g'ri shakllantirilmasa, ularda tortinchoqlik uzoq muddat saqlanib qolishi mumkin.

- o'quvchining darsdagi nafaolligi;

- o'quvchilarning o'z shevasida gapirishi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ kompetensiyani shakllantirish ulani o'qish, yozish, gapirish va tinglashga o'rgatish orqali amalga oshiriladi. Savod o'rgatish davridan boshlab to'rtala yo'nalish ham parallel ravishda olib boriladi. Bu turli xil mashqlar bilan tizimli ravishda ishlash orqali amalga oshiriladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida muloqotchanlikni shakllantirishda kommunikativ mashqlar yetakchilik qiladi.

Kommunikativ mashqlar nutq malakalarini shakllantirish va til bo'yicha amaliy bilimlarning eng yuqori darajasini ta'minlaydigan ijodiy mashq turi. [2, 103].

Og'zaki va yozma nutq ko'nikmalarini rivojlantirish uchun foydali bo'lgan yagona mashqlar kommunikativ mashqlar va xususan, ijodiy xarakterdagi kommunikativ mashqlardir [7]. Kommunikativ mashqlar ba'zi talablarga javob berishi kerak.

- mashqlar aniq nutq vaziyatini, tabiatda sodir bo'layotgan jarayonlarni ifodalashi kerak;

b) mashq sharti tushunarli, topshiriq aniq bo'lishi kerak;

- mashqlar o'quvchilarni tezda charchatmasligi va davomiyligi 3-5 daqiqadan oshmasligi kerak.

Kommunikativ mashqlarni bir nechta turlarga bo'lish mumkin:

1. Og'zaki nutqni rivojlantirishga qaratilgan kommunikativ mashqlar (matnni qayta so'zlab berish, matn yoki video ketma-ketlikni qayta aytib berish, aytilayotgan vaziyatga nisbatan fikr bildirish, matnni davom ettirish va boshqalar).

2. Yozma nutqni rivojlantirishga qaratilgan kommunikativ mashqlar (berilgan tayanch soʻzlar asosida matn tuzish, rasmlar asosida matn tuzish, aralash berilgan gaplardan matn tuzish va boshqalar).

3. Oʻquvchilarga beriladigan mustaqil topshiriqlar (alohida soʻz va soʻz brikmalarini toʻgʻri talaffuz qilish va oʻqish, matnning ayrim qismlarini oʻqishnimashq qilish, tinglab tushunish koʻnikmalarini rivojlantirish mashqlari va boshqalar).

Xulosa qilib aytadigan boʻlsak, til taʼlimi jarayonida boshlangʻich sinf oʻquvchilarida kommunikativ kompetensiyani shakllantirish eng muhim vazifalardan biridir. Bunda ona tili va oʻqish savodxonligi darslari “muloqot darslarga” aylanmogʻi lozim. Buning uchun esa har bir darsning eng katta qismi kommunikativ mashqlarga ajratilishi kerak. Kommunikativ mashqlar qanchalik xilma-xil va mazmunli, aniq maqsadga yoʻnaltirilgan boʻlsa, oʻquvchilar shunchalik muloqotchanligi ortadi.

#### Adabiyotlar

1. Ona tili fani boʻyicha Oʻzbekiston Respublikasi uzluksiz taʼlim Milliy oʻquv dasturlari. – Toshkent, 2021. -252 bet.

2. Азимомова Е.Г., Щукин А.Н. Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам). –М.: Издательство ИКАР, 2009. – 448 с.

3. Баймова О.А. Формирование коммуникативной компетенции обучающихся на уроках иностранного языка// Выпускная квалификационная работа. –Екатеринбург, 2018. 101 с.

4. Eraliyeva D.O. Taʼlimda til kompetentligini shakllantirish rivojlantirish. Magistrlik dissertatsiyasi. – Namangan: 2019. -97 b.

5. Гильманова С.А. Педагогические условия развития иноязычной коммуникативной компетенции студентов неязыковых факультетов. Диссертация на соискание академической степени магистра. –Челябинск, 2019. 147 с.

6. Пыркова Т.А. Формирование лингвистической компетенции студентов неязыкового вуза средствами театрализации. Диссертация на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. –Екатеринбург, 2018. -166 с.

7. Юсупов А. Устные коммуникативные упражнения с использованием современных технологий в изучении иностранных языков. //Oʻzbekistonda xorijiy tillar ilmiy metodik elektron jurnal. №2/2017.



Jurnal Ommaviy axborot vositasi davlat ro'yxatidan 2020 yil 6 oktyabrda o'tgan.  
Jurnal har oyda bir marta o'zbek, rus va ingliz tillarida nashr etiladi.  
Jurnalning hajmi 60x84, 1/8, A-4;

«Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar» xalqaro ilmiy-metodik jurnali 2020 yil oktyabrdan nashr etilmoqda.

Pedagogika, psixologiya, filologiya va tilshunoslik, matematika, fizika va mexanika, texnika fanlari, tabiatshunoslik, tarix va falsafa, turizm va iqtisodiyot, axborot kommunikatsion texnologiyalari, geografiya sohalardagi ilmiy va ilmiy-uslubiy materiallarni o'z ichiga oladi. Nashr qilingan materiallar mualliflari O'zbekiston Respublikasi hamda yaqin va uzoq xorijning yetakchi olimlari, tadqiqotchi-izlanuvchilari.

Jurnalning kalit so'zlari:

Oliy pedagogik ta'lim nazariyasi va amaliyoti; umumiy va maxsus pedagogika va psixologiya, pedagogika va innovatsiya, integratsiya, O'zbekiston, Rossiya va xorijiy mamlakatlarning ta'lim tizimi; ta'lim jarayoni; ko'p madaniyatli va mintaqaviy ta'lim; III Renessans, XXI asrdagi ta'lim; ta'lim va tarbiya sohasidagi milliy va qadriyat ustuvorliklari; ta'lim sifatini monitoring qilish; uzluksiz pedagogik ta'lim tizimi; ta'lim dasturlari; umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlari; o'qituvchilarni tayyorlash tizimidagi ta'lim texnologiyalari.

Guvohnoma raqami № 8882  
Bosh muharrir: B.B.MA'MUROV

Bosishga ruxsat etildi 28.08.2023. Buyurtma № 8347.  
«Buxoro viloyat bosmaxonasi» MCHJda chop etildi.

ISSN 2181-1717 (E)



ISSN 2181-1709 (P)

